

FIRIBGARLIK VA UNING XUSUSIYATLARI

¹Abdusatarov Jaloliddin Sharafutdin o'g'li

¹Qibray tumani adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh maslahatchisi

²O'roqov Abbosxon Nuroli o'g'li

²Qibray tumani adliya bo'limi bosh maslahatchisi

***Annotatsiya:** mazkur maqolada firibgarlik tushunchasi, turlari keltirilib, mualliflar tomonidan firibgarlikning turli jihatlari hamda javobgarlik doirasi muhokama qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** firibgarlik, jinoyat, javobgarlik.*

МОШЕННИЧЕСТВО И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКИ

Абдусатаров Джалолиддин Шарафутдин угли

Главный советник Центра юридической службы Кибрайского районного отдела юстиции

Уроков Аббасхан Нуроли угли,

Главный советник отдела юстиции Кибрайского района

***Аннотация:** в статье излагаются понятие и виды мошенничества, а также авторы рассматривают различные аспекты мошенничества и объем ответственности.*

***Ключевые слова:** мошенничество, преступление, ответственность.*

FRAUD AND ITS FEATURES

¹Abdusatarov Jaloliddin Sharafutdin oglu

¹Chief Advisor of the Legal Service Center of the Justice Department of the Kibray District

²**Orokov Abboskhon Nuroli oğlu,**

²Chief Advisor of the Justice Department of the Kibray District

Abstract: *this article presents the concept and types of fraud, and the authors discuss various aspects of fraud and the scope of liability.*

Keywords: *fraud, crime, liability.*

Firibgarlik bu - o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan qonunga xilof ravishda va tekin qo'lga kiritishda ifodalanib, buning ta'sirida mulkdor (uning vakili), mulkning boshqa egasi yoki vakolatli organ mulkni yoki unga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga beradi. Ushbu jinoyatning obyekti o'zganing mulkidir.

Firibgarlikning predmeti o'zganing mulki yoki mulkka bo'lgan huquqidir. Odatda, mulkka bo'lgan huquq, turli xil hujjatlarda mustahkamlangan bo'ladi.

Obyektiv tomondan firibgarlik aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiy huquqini qo'lga kiritishdan iborat.

Aldash deganda, mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan shaxsning o'zi uni firibgarga ixtiyoriy ravishda, o'z xohishi bilan berishi, jabrlanuvchini chalg'itish uchun aybdor shaxs tomonidan har qanday fakti buzib ko'rsatish yoki haqiqatni yashirish yoxud bila turib yolg'on ma'lumotlarni xabar qilish tushuniladi. Firibgarlikning mulkni talon-toroj qilishning o'g'rilik,

talonchilik, bosqinchilik shakllaridan farqi shundaki, firibgarlikda jabrlanuvchining o'zi mulkni aybdorga ishongani yoki aldanganligi sababli ixtiyoriy ravishda berib yuboradi. Xususiyl shaxs tomonidan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilib mablag', pensiya, nafaqa yoki boshqa to'lovlarni qasddan qonunga xilof ravishda olishini firibgarlik deb hisoblanadi. Ishonchni suiiste'mol qilish deganda, aybdor shaxs tomonidan o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda o'z foydasiga olish uchun o'zi va mulk egasi yoxud mulk egaligi ixtiyorida turgan shaxs o'rtasidagi alohida, o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlardan qonunga xilof ravishda mulkni o'z foydasiga olish uchun foydalanilishi tushunilishi lozim. Ishonchga asoslangan munosabatlar firibgar va jabrlanuvchi shaxs o'rtasida prokat, ijara, oldi-sotdi, topshiriql shartnomasi va h.k.larda vujudga kelishi mumkin.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloql tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Firibgarlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloql tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi, agar:

a) ancha miqdorda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa.

Firibgarlik:

- a) ko‘p miqdorda;
- b) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- v) xizmat mavqeyidan foydalangan holda;

g) axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etilgan holda besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Firibgarlik:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.